

MAMLAKATIMIZ MAKTABLARINI BITIRUVCHI O‘G‘IL-QIZLARIMIZGA

VATANIMIZ KELAJAGI, TAQDIRI VA TARAQQIYOTI YOSHLAR QO‘LIDA

Qadrlı farzandlarim!

Avvalo, siz, azizlarni hayotingizdagi bugungi unutilmas quvonchli voqea — maktab ta’limini muvaffaqiyatli tugatib, yetuklik shahodatnomasini qabul qilib olayotganingiz va mustaqil hayotga qadam qo‘yayotganingiz bilan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu shukuhli ayyomda mamlakatimizdagi 10 mingdan ziyod maktabda mehribon ustozlar, hurmatli ota-onalar ishtirokida “so‘nggi qo‘ng‘iroq”lar jaranglab, 450 ming nafardan ortiq bitiruvchi yoshlarimiz sha’niga ezgu tilaklar bildirilmoqda.

Barchamiz bu fikrlarga chin dildan qo‘shilgan holda, katta orzu-uymidlar bilan kelajak rejalarni tuzayotgan o‘g‘il-qizlarimizga ularni amalga oshirishda ulkan kuch-g‘ayrat, omad va zafarlar tilaymiz.

Ayniqsa, maktabni oltin medal bilan bitirayotgan 11 ming 500 nafardan ziyod farzandlarimizga, 2 mingdan ortiq kumush medal sohiblariga o‘qish va izlanishda, jamoat ishlarida o‘z tengdoshlariga doimo o‘rnak va namuna bo‘lib kelayotganlari uchun alohida tabrik va tilaklarimizni izhor etamiz.

Aziz bitiruvchi yoshlar!

Bugungi kunda biz o‘z oldimizga qo‘yayotgan buyuk maqsadlarni amalga oshirishda butun xalqimiz qatori, bilimli, hunarli, tadbirkor va vatanparvar, har tomonlama yetuk yoshlarimizga tayanamiz.

Kelajagimiz egalari bo‘lgan navqiron avlodimiz Yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta bunyodkor kuch sifatida ishtirok etishi uchun zarur sharoitlarni yaratib bermoqdamiz. Jumladan, sizlarning zamonaviy ilm va kasb-hunarlar, ona tili bilan birga xorijiy tillar, IT va innovatsion texnologiyalarni, ijod va tadbirkorlik sohalarini puxta egallashingiz uchun hozirgi kunda 201 ta oliy o‘quv yurti, 598 ta texnikum, ko‘plab monomarkaz va texnoparklar, kutubxonalar, madaniyat, san’at va sport muassasalari samarali faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ta’limning barcha bo‘g‘inlarida o‘quv-tarbiya ishlarining sifati va natijadorligini oshirish, bitiruvchi yoshlarimizga tanlov imkoniyatlarini kengaytirish uchun yangi-yangi tizim va dasturlar, elektron platformalar ishga tushirilmoqda.

Sizlar ana shunday beqiyos imkoniyatlardan oqilona foydalanib, yoshlik faslining oltinga teng har bir daqiqasini qadrlab, kelgusida Vatanimiz mustaqilligini, el-yurtimiz manfaatlarini barcha sohalarda dadil himoya qiladigan yetuk kadrlar, ongli va olijanob insonlar bo‘lib, xalqimizga sidqidildan xizmat qilasiz, deb ishonaman.

Shuni aslo unutmang, odamzot hayotda munosib o‘rin topishi, el-yurtning hurmati va e’tiboriga sazovor bo‘lishi uchun milliy va umuminsoniy

qadriyatlarini egallab, doimo oldinga intilib yashashi, izlanish va o‘rganishdan aslo to‘xtamasligi kerak.

Halol va mashaqqatli mehnat, ilmga, kasbga, ota-ona va oilaga sadoqat, hech shubhasiz, insonni yuksaltiradi, uning hayotini fayzli va charog‘on etadi.

Ayniqsa, sizlar kabi navqiron, azmu shijoatli yoshlarimizga shiddatli zamonadan ibrat olib, har kuni bir natijaga erishib, irodangizni sinovlarda toblab, faqat va faqat oldinga qarab borish yarashadi.

Aminman, sizlarning yangi g‘oya va tashabbuslaringiz, turli sohalardagi yutuqlaringiz Yangi O‘zbekistonni yanada qudratli etadigan moddiy va ma’naviy asoslarni barpo etishga beqiyos hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Sizlardek o‘z kuchiga ishongan, qat’iyatli yoshlardan qadrdon maktabingiz, aziz ustozlaringiz va otionalaringiz, butun xalqimiz faqat ezgu ishlar va yorqin natijalar kutadi.

Ana shunday yuksak ishonchga doimo munosib bo‘ling!

Intilish, izlanish va yangilik yaratishdan aslo charchamang!

Mustaqil hayot sari ilk qadamlaringiz qutlug‘ bo‘lsin, aziz o‘g‘il-qizlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti



bitiruvchi yoshlarimiz ulkan imkoniyatlar taqdim etadigan butunlay yangi hayot ostonasida turibdi. Bu, albatta, barchamizga katta g‘urur-iftixor baxsh etadi.

Yurtimizda maktab bitiruvchilarining katta hayot ostonasida o‘z yo‘lini qiyalmasdan, qoqilmasdan topishi uchun barcha zarur choralar ko‘rilmogda. Ayniqsa, keyingi yillarda navqiron avlod vakillarini har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, qobiliyat

va salohiyatini ro‘yobga chiqarishga juda katta e’tibor qaratilyapti. Chunki yurtimizda yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk maqsadlarga kirishilgan ekan, shubhasizki, ushbu maqsadlar ro‘yobi, jonajon vatanimizning kelajagi, taqdiri va taraqqiyoti bugun shinam sinfxona va auditoriyalarda qunt bilan ta’lim olayotgan yoshlar qo‘lida.

Davomi 4-betda

Nuqtayi nazar



TDT NORASMIY SAMMITI: O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TASHABBUSLARINING AHAMIYATI NIMADA?

Mamlakatimizning tashqi siyosat borasidagi chuqur o‘ylangan, har tomonlama muvozanatli, ochiq va pragmatik, avvalo, xalq manfaatlarini ustuvor sa’y-harakati, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlardagi faol ishtiroki nufuzli tashkilotlar, xorijiy ekspertlar, mutaxassislar, davlat va jamoat arboblari, xorijiy yetakchi OAV tomonidan e’tirof etilmoqda.

Birgina misol: Turkiy davlatlar tashkilotining Budapestda bo‘lib o‘tgan norasmiy sammiti arafasida Vengriyaning yetakchi “Hungarian Conservative” axborot-tahliliy nashrida “O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi yetakchiligi: Prezident Shavkat Mirziyoyevning qarashlari” sarlavhali maqola e’lon qilindi. Unda O‘zbekistonda TDT kun tartibini belgilab beruvchi va uning xalqaro maydonidagi ta’sirini kuchaytiruvchi qator chuqur islohotlar boshlandi, deya ta’kidlanadi. Bundan anglash mumkinki, O‘zbekistonning tashkilotdagi roli va ilgari surayotgan tashabbuslarini yetakchi ekspertlar va xorijiy OAV yuksak baholamoqda.

O‘zbekiston bugun turli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarga a’zo. Ular orasida TDT a’zolarining madaniyati, tili, an’analari, tarixi, qadriyatlarini muhtarakligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. O‘xshash til, yagona din, tarixiy va madaniy rishtalar asosida shakllangan bu tuzilma mintaqaviy ko‘p qirrali hamkorlikning samarali siyosiy-diplomatik platformasiga, Markaziy Osiyo va Yevrosiyodagi siyosiy hamda iqtisodiy jarayonlarning muhim ishtirokchisiga aylanib, xalqaro maydondagi mavqei tobora mustahkamlanmoqda.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON — SLOVENIYA GLOBAL IQLIM BIRDAMLIGI YO‘LIDA UMUMIY MAQSADLARGA EGA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Sloveniya Respublikasi Prezidenti Natasha Pirs Musarning taklifiga binoan 21-22-may kunlari ushbu mamlakatga amalga oshirgan rasmiy tashrifi o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishda samarali natijalarga boy bo‘ldi. Binobarin, keyingi yillarda tovar ayirboshlash uch barobar ko‘paygan bo‘lsa, tashrif doirasida ushbu ko‘rsatkichni yanada oshirish, eng avvalo, mahsulotlar turini kengaytirish va import o‘rnini bosish hisobiga birinchi bosqichda 500 million yevroga yetkazish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Erishilgan kelishuvlarga ko‘ra, texnologik modernizatsiyaga urg‘u bergan holda Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish dasturi tayyorlanadi. Shu ma’noda, Sloveniya yetakchi kompaniyalarining O‘zbekistonda elektrotexnika, uskunasozlik, farmatsevtika,

“yashil” energetika, “aqli” qishloq xo‘jaligi sohaslarida loyihalarni amalga oshirish borasidagi intilishlari qo‘llab-quvvatlandi. Davlatimiz rahbari iqtisodiy sheriklikni yanada rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tdi.

Farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish, elektrotexnika jihozlari, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, meva-

sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash, “yashil” energetika obyektlarini qurish va modernizatsiya qilish shular jumlasidan.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston — 2030” strategiyasi



OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI BARQAROR RIVOJLANISHDA DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Jahon iqtisodiyoti globallasuvi, turli inqirozlar, jumladan, pandemiyalar, tabiiy ofatlar hamda geosiyosiy muammolar mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga ehtiyojini keskin oshirmogda. Bunday sharoitda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi har bir davlat uchun strategik ahamiyat kasb etmogda.

O‘zbekiston uchun ham ushbu masala ustuvor ahamiyatga ega. U mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, aholining turmush darajasi va farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, davlat tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash

borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash borasidagi ishlar tahliliga o‘tishdan oldin, avvalo, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir strategik hujjatlarda bu

borada belgilangan maqsadlarga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ayni yo‘nalishda qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish maqsadi belgilangan. Ushbu maqsad doirasida bir gektardan olinadigan o‘rtacha daromadni 5000 dollarga, qishloq xo‘jaligi sohasida eksport qiymatini yiliga 10 milliard dollarga, hosildorlikni paxta bo‘yicha o‘rtacha 45-50, g‘alla bo‘yicha 80-85 sentnerga yetkazish, agrar sohaga

jami 15 milliard dollarlik investitsiya jalb qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko‘rsatkichining 25 foizdan yuqori bo‘lishini ta’minlash, hududlarda 2,5 million tonna quvvatga ega 100 ta yangi agrologistika markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda ularning eksport salohiyatini 1 milliard dollarga olib chiqish kabi ustuvor vazifalar rejalashtirilgan.

Davomi 3-betda

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

BARQAROR RIVOJLANISHDA DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHLARI



Iskandar O‘ROQBOYEV,
Barqaror rivojlanish
markazi eksperti

Boshlanishi 1-betda

Xususan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida yuqori avlodli va xorijiy davlatlardan olib kelingan urug‘larni ekish, intensiv texnologiyalardan foydalangan holda ekinlar parvarishini yo‘lga qo‘yish orqali bir gektardan olinadigan o‘rta daromadni 5000 dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, 500 ming gektar yerda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hisobiga 2-2,5 milliard kub metr suvni iqtisod qilish, chorvachilikda yillik o‘shish sur‘atini kamida 3,8 foizga yetkazish, ipak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,2 barobar, eksport hajmini 1,5 barobar oshirish kabi maqsadlar o‘rin olgan.

Strategiya va agrar tarmoqni zamon talablarga mos rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar asosida mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash, agrar sektorni diversifikatsiya qilish, zamonaviy agroteknologiyalarni joriy etish va agrologistika infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste‘mol o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, ichki bozorda narxlarni barqarorlashtirish hamda aholining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq ta‘minlashga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 16-fevraldagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”-gi farmonida to‘yib o‘qat-lanmaydigan aholi ulushini kamaytirish bo‘yicha aniq strategik maqsad belgilab qo‘yilgan. Unga muvofiq, ushbu ko‘rsatkichni 2023-yildagi 2,5 foizdan 2030-yilgacha 1,5 foizgacha pasaytirish rejalashtirilgan.

Bu ko‘rsatkich nafaqat aholi salomatligi va turmush darajasini oshirish, balki mamlakatda barqaror oziq-ovqat tizimini shakllantirish, ishlab chiqarish, ta‘minot va iste‘mol zanjirlarini yaxshilash orqali umumiy iqtisodiy barqarorlikka erishish maqsadini ham o‘zida mujassam etadi. Ushbu maqsadga erishish doirasida mamlakatda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, agrar klaster va kooperatsiya tizimlarini joriy etish, shuningdek, tomorqa xo‘jaliklarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Bu orqali oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, ichki bozorni mahsulot

bilan barqaror ta‘minlash hamda aholi bandligini oshirish kabi vazifalar bajarilmoqda.

Qishloq xo‘jaligini isloh qilish va bog‘dorchilikni rivojlantirishga qaratilgan tizimli siyosat natijasida ichki bozordagi oziq-ovqat ta‘minoti barqarorlashuvi bilan birga eksport salohiyati ham izchil ortmoqda. Meva-sabzavotchilik, polizchilik va uzumchilik yo‘nalishlarida raqobatbardosh, yuqori sifatli mahsulotlar yetishtirishga erishilmoqda. Ayniqsa, tashqi bozorda talab yuqori organik va qayta ishlangan mahsulotlarni eksport qilish hajmi yildan yilga o‘tib borayotir.

Milliy iqtisodiyotning eksportga aloqadorligi oshmoqda

Ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda iqtisodiyotda band bo‘lgan 14 million kishining 24 foizi, ya‘ni 3,4 millioni qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi sohaslarida faoliyat yuritgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 19,2 foizni tashkil etmoqda. Bu esa ushbu soha nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, balki aholi bandligini oshirish va eksport orqali valyuta tushumini ko‘paytirishda ham muhim o‘rin tutayotganini anglatadi.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, klaster va kooperatsiya tizimlarini joriy etish, zamonaviy agroteknologiyalarni keng qo‘llash, shuningdek, tomorqa xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash orqali mahsulot yetishtirish hajmi va sifatini oshirishga erishilmoqda.



Bu chora-tadbirlar orqali aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta‘minlash barobarida, mahsulotlar importini qisqartirish va milliy oziq-ovqat tizimini mustahkamlash maqsad qilingan.

2024-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari va xizmatlarining umumiy



Xususan, Samarqandda o‘tkazilgan xalqaro konferensiyalar jarayonida rivojlangan mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi samarali tajribasi kuzatilgan va O‘zbekiston uchun ularni o‘z sharoitiga moslashtirish yo‘llari muhokama qilingan. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligi borasidagi sa‘y-harakatlari samaradorligini hamda mamlakatning mustahkam pozitsiyasini namoyon etmoqda.

O‘zbekistondagi islohotlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladi. Jumladan, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, to‘yinganlikni oshirish va barqaror qishloq xo‘jaligini targ‘ib qilish maqsadiga muvofiq. Ushbu maqsadga qaratilgan chora-tadbirlar, o‘z navbatida, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini va uzoq muddatda iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashga yordam bermoqda.

Ayni yo‘nalishdagi uch muhim islohot

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida qishloq xo‘jaligi sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Birinchidan, an‘anaviy tarzda paxta va g‘alla yetishtirishga ixtisoslashtirilgan ayrim yer maydonlari qisqartirilib, o‘rniga sabzavot, dukkakli va poliz ekinlarini yetishtirishga ustuvor ahamiyat qaratilyapti. Bu esa oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish, mahalliy bozorlardagi tanqislikni bartaraf etish va aholi ta‘minotini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligida klaster va kooperatsiya tizimlari joriy etilishi qayta ishlab, saqlash va eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirdi. 2025-yilda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish rejalashtirilgan bo‘lib, bu oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan.

Uchinchidan, tomorqa xo‘jaliklariga davlat tomonidan imtiyozli kredit va subsidiyal berilmoqda. Bu esa aholining o‘z yerida mahsulot yetishtirishi va mahalliy bozorlarni boyitishga imkon bermoqda.

Bundan tashqari, innovatsion yechimlar va zamonaviy texnologiyalar oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, blokcheyn texnologiyasining joriy etilishi mahsulotlarining sifatini nazorat qilish va ta‘minot zanjirini shaffoflashtirishda samara bermoqda.

Shu bilan birga, agrologistika tizimini takomillashtirish, saqlash inshootlarini modernizatsiya qilish orqali mahsulot yo‘qotishlarini kamaytirishga erishilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida O‘zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘zini ta‘minlash darajasini sezilarli ravishda oshirdi va importga qaramlikni kamaytirdi.

Oziq-ovqat xavfsizligi miqdordan tashqari sifat va xavfsizlikka ham bog‘liq. O‘zbekistonda bu borada normativ-huquqiy baza mustahkamlangan, oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligiga doir normalar yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir. Sanitariya, veterinariya va fitosanitariya qoidalari rivoj etish qat‘iy nazorat qilinadi.

Oziq-ovqat sanoati sohasida xatarlarni tahlil qilish sifatida tavsiflangan HACCP (Xavfli tahlil va keskin nazorat nuqtalari) va GHP tizimlari oziq-ovqat ishlab chiqarishda joriy qilingan bo‘lib, mahsulotlarning xavfsizligini ta‘minlash va zaharlanish holatlarining oldini olishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari oziq-ovqat sifati ustidan jamoatchilik nazoratini olib borishda faollik ko‘rsatmoqda.

To‘g‘ri ovqatlanishga e‘tibor kuchaytirilib, davlat tomonidan targ‘ibot kampaniyalari yuritilmoqda. Bu yilga mo‘ljallangan davlat dasturida aholi orasida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha targ‘ibotni kuchaytirish vazifasi belgilanganini alohida qayd etib o‘tish lozim. O‘z navbatida, bu jihatlarning aholining to‘g‘ri ovqatlanish borasidagi bilimini oshirmoqda, salomatligini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olishga xizmat qilaypti.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda qator muhim masalalar mavjud.

Birinchidan, iqlim o‘zgarishi, qurg‘oqchilik va suv tanqisligi qishloq xo‘jaligi mahsuldorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Ikkinchidan, global inqirozlar — pandemiya va iqtisodiy noustuvorlik, jahon iqtisodiy tebranishlari oziq-ovqat ta‘minotiga xavf tug‘diradi. O‘zbekiston bu xavflarni kamaytirish maqsadida zaxiralari yaratish va importga qaramlikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rmqda.

Oziq-ovqat narxlarining keskin oshishi aholi daromadiga ta‘sir qilib, iqtisodiy barqarorlikni buzishi mumkin. Davlat imtiyozli kredit va narxlar monitoringi orqali narxlar barqarorligini ta‘minlashga harakat qilmoqda.

Kambag‘allik darajasi ham katta muammo — 2025-yilda kambag‘allikni aniqlash va oziq-ovqat ta‘minotiga erishishning iqtisodiy qulayligini oshirish vazifasi dolzarb bo‘lib turibdi. Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi sohasida ilmiy tadqiqotlar va malakali kadrlar yetishmasligi rivojlanishga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Buning uchun samarali o‘qitish va trening dasturlari talab etiladi.

Xulosa o‘rnida

O‘zbekiston oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom oziqlanishni ta‘minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirmoqda. Ushbu strategiya aholining turmush tarzini yaxshilash uchun resurslardan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Suvdan foydalanish tizimini takomillashtirish va yer unumdorligini oshirish, oziq-ovqat yetishtirishni ko‘paytirish shular jumlasidan.

Shuningdek, xorijiy va mahalliy investitsiyalar orqali qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va eksportni ikki barobar oshirish rejalashtirilgan. Xalqaro tashkilotlar, xususan, FAO bilan hamkorlikni kuchaytirish oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Aholi orasida to‘g‘ri ovqatlanish va oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha targ‘ibot ishlari o‘tkazish, shuningdek, malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish ham muhim masalalardan. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalardan keng foydalanish oziq-ovqat ta‘minoti zanjiri samaradorligini oshirishga yordam beradi.

O‘zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash sohasida muhim yutuqlarga erishgan. Shu bilan birga, bu yo‘nalishdagi muammolarni bartaraf etish va global iqtisodiy o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun davomli sa‘y-harakatlarni jadallashtirish muhim vazifalarimizdan biridir. Shu o‘rinda qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash, mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va agrar sektorni rivojlantirish bilan birga, xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish ham muhim.

Mamlakatimizdagi islohotlar va xalqaro aloqalar O‘zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va barqaror rivojlanishini ta‘minlashda yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Farmon va ijro

YANGI MARKAZ

TAJIRIBANI OMMALASHTIRISH UCHUN QULAY MAYDON

Bahorning so‘nggi oyi quvalik fermerlar uchun tajriba almashish bo‘yicha ajoyib imkoniyat bo‘ldi. Gap shundaki, O‘zbekiston fermerlari kengashi tashabbusi bilan o‘tkazilgan tadbirda Germaniya qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan olimlar, fermer va tajribali mutaxassislar qatnashdi.

Prezidentimizning 2025-yil 14-fevraldagi “Tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asosan, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi O‘zbekiston fermerlari kengashi etib qayta tashkil etildi.

Mazkur farmonda Yangiyo‘l, Oltiariq, Quva, Asaka, Angor, Denov, Qo‘shrabot va boshqa eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan

tumanlarda eksport rivojlanishining aholi tomorqalari va ijara yer maydonlaridan chuqur ixtisoslashuv asosida samarali foydalanishga ijobiy ta‘sirini inobatga olib, alohida kompaniya tashkil etish orqali ushbu tajribani bosqichma-bosqich respublikaning qolgan tumanlari va mahallalariga tatbiq etish belgilab berilgan edi.

Aytish kerakki, Quvada bugun ana shunday o‘rgansa arzigulik tajriba bor. Buni germaniyalik mutaxassislar ham e‘tirof etdi.

Tumandagi Tomorqa yer uchastkalarini rivojlantirish ilmiy-amaliy markazida



innovatsion texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy issiqxona tashkil qilish, intensiv bog‘larni ko‘paytirish va tegishli infratuzilmani kuchaytirish uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Buning uchun 6 milliard so‘m ajratildi. Natijada 168,8 gektar eski bog‘ intensiv boqqa aylantirildi. Onalik bog‘lari maydoni 58 gektardan ziyodga, kolleksiya navlari 230 turga, “in vitro” usulida yangi uzum va mevali ko‘chatlar, limon, manzarali daraxtlar, gullar hamda boshqa turdagi ko‘chatlarni laboratoriya sharoitida yetishtirish 150 ming tupga yetkazildi.

Markazning ilmiy-ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish maqsadida Toshkent

innovatsion texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy issiqxona tashkil qilish, intensiv bog‘larni ko‘paytirish va tegishli infratuzilmani kuchaytirish uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Buning uchun 6 milliard so‘m ajratildi. Natijada 168,8 gektar eski bog‘ intensiv boqqa aylantirildi. Onalik bog‘lari maydoni 58 gektardan ziyodga, kolleksiya navlari 230 turga, “in vitro” usulida yangi uzum va mevali ko‘chatlar, limon, manzarali daraxtlar, gullar hamda boshqa turdagi ko‘chatlarni laboratoriya sharoitida yetishtirish 150 ming tupga yetkazildi.

Quvadagi Tomorqa yer uchastkalarini rivojlantirish ilmiy-amaliy markazi tomonidan tajribali o‘qituvchi va usta-dehqonlar jalb etilib, fermer xo‘jaligi rahbarlari hamda yosh qishloq xo‘jaligi xodimlarini o‘qitish, bilim va ko‘nikmasini oshirish faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda. Xususan, Lola Murotova nomidagi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan texnikum bilan qishloq xo‘jaligi mutaxassislarini tayyorlash va o‘qitish, shuningdek, viloyatdagi barcha xo‘jalikdagi fermer xo‘jaliklari xodimlarining bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ilm-fan bilan ishlab chiqarish integratsiyasini ta‘minlashga e‘tibor qaratilyapti.

**Uchqun BOLIYEV,
Fermer xo‘jaliklarini
qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi
mutaxassisi**

